

O'Quvchilar FunkSIONAL Savodxonligini Baholash Bo'Yicha Dasturni (Pisani) Fanlararo Bog'Liqlik Asosida O'Rganish

Kamshat Baymenova¹

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarning o'qish va funkSIONAL savodxonligini baholashga doir ta'limiy topshiriqlar borasida so'z yuritiladi. Xususan, til ta'limini fanlararo bog'liqlikda PISAga oid matnlar asosida atroflicha tatbiq qilingan.

Kalit so'zlar: PISA, xalqaro tadqiqot, o'qish savodxonligi, baholash dasturi, matn, fanlararo bog'liqlik.

Dunyoning rivojlangan davlatlari amaliyotida yosh avlod tafakkurini, intellektini rivojlantirish o'z-o'zidan mavjud pedagogik shart-sharoitlar, metod va usullar bilan emas, balki yangi innovatsion g'oyalar, shuningdek, ta'limning rivojlanish bosqichidagi eng so'nggi yutuqlar orqali amalga oshirilmoqda. O'quvchilar tafakkurini rivojlantirish, intellektini boyitish jahonning yetakchi davlatlarida turlicha amalga oshiriladi.

Mamlakatimiz yangi innovatsiyalar, raqamli iqtisodiyot taraqqiyoti yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan ushbu davrda O'zbekiston kelajagi bo'lgan yoshlarning intellektual salohiyati va fikrlash qobiliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini davlat ta'lim standari asosida shakllantirish hamda xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir².

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF- 4947 –sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" doirasida O'zbekistonda ta'lim sifati monitoringini yangicha xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash tizimi shakllantirilmoqda. Xalqaro baholash dasturlari deganda PISA, PIRLS, TIMSS kabi dasturlar tushuniladi³.

PISA –o'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi hisoblanishi barchamizga ma'lum. Dasturning asosiy maqsadi 15 yoshli o'quvchilarning 3 yo'nalishdagi: o'qish, matematik va tabiiy savodxonligini aniqlashdan iborat. Topshiriq qaysi fanga oid bo'lmasin, avvalo, uning zamirida o'qish yo'nalishiga alohida urg'u beriladi. O'qish –matnni tushunish demakdir. Shu bois biz o'zbek tilini davlat tili sifatida o'rgatish jarayonida faqat til jihatdangina emas, balki fanlararo bog'liqlikda o'rgatish ham muhim sanaladi. O'quvchilar bilimini xalqaro baholash dasturlari sinovlarida yaxshi natijalarni qo'lga kiritish uchun har bir darsda fanlararo integratsiyani qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Xo'sh, o'zbek tili (davlat tili) darslarida fanlararo bog'liqlikni qanday qo'llash mumkin?

Darvique, til ta'limida o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, matn bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirish va sinchkovlik talab etiladigan topshiriqlarni qo'llash o'quvchining hayotiy va intellektual ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, 8-sinf o'zbek tili darsligida berilgan "Sog'lik-tuman boylik. (Biriktiruv va zidlov bog'lovchilari, ularning qo'llanishi va imlosi)" mavzusini o'tishda o'qituvchi mavzuni mustahkamlash maqsadida quyidagi matn asosida PISA topshiriqlari tuzishi mumkin:

O'ttiz ikki qo'riqchimiz omon bo'lsin⁴

Tishlarimizga "O'ttiz ikki qo'riqchi" deya ta'rif berilishi sababini bilasizmi? Agar ular bo'lmasa, ovqat chaynashni tasavvur qilib ko'ring-a?! Ularning birortasi shikastlanib qolsa-chi? Ba'zilar darhol tish shifokori huzuriga borishni istashmaydi. Sababi esa o'zingizga ma'lum. Ana shunday ahvolga tushib qolmaslik uchun eng muhim a'zolaringizdan biri

¹ Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida assistenti

² Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi. O'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi haqida qo'llanma.-T.:2019.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7- fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF- 4947-son Farmoni.– O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y.

⁴ Xadicha Muhitdinova. O'zbek tili. Ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 8-sinfi uchun darslik. "O'qituvchi", Toshkent-2019, 73-bet.

bo'lgan tishlaringizni asrab-avaylang. Ularning butunligini ta'minlang, chunki oshqozondagi ovqatning hazm bo'lishida tishlarning o'rni beqiyos. Chala chaynalgan ovqat oshqozon faoliyatini buzilishiga olib keladi.

Tishlaringiz sog'lom va mustahkam bo'lishi uchun kalsiyga boy mahsulotlarni ko'proq iste'mol qiling. Bundan tishlaringiz ham, suyaklaringiz ham mustahkam bo'ladi. Tishlaringizni kuniga ikki marta: ertalab nonushtadan so'ng va kechqurun uxlashdan oldin yuving. Chunki tishlaringiz orasida qolgan ovqat qoldiqlari ta'sirida kariyesga chalinishi mumkin. Tishlarimizning ashaddiy dushmani kariyes bo'lib, u tishning erta yemirilishiga olib keladi. Yana bir maslahat: bir yilda ikki marta tish shifokori ko'rigidan o'tib turing va albatta, ularning maslahatlariga quloq tuting.

1-topshiriq: Javobi tanlanadigan test

Quyidagi qaysi xususiyatda tishlarning o'rni beqiyos?

- A. Mushaklarning to'g'ri rivojlanishida
- B. Oshqozondagi ovqatning hazm bo'lishida
- C. Yurak faoliyatining mustahkam bo'lishida
- D. To'g'ri nafas olish jarayonida

2-topshiriq: Bir necha javobli test

| | | |
|----|--|---------|
| 1. | Tishlaringiz sog'lom va mustahkam bo'lishi uchun oqsilga boy mahsulotlarni ko'proq iste'mol qilish kerak | HA-YO'Q |
| 2. | Chala chaynalgan ovqat oshqozon faoliyatini buzilishiga olib keladi | HA-YO'Q |
| 3. | Tishlaringizni kuniga besh marta yuvish kerak | HA-YO'Q |
| 4. | Tishlarimizning ashaddiy dushmani kariyes | HA-YO'Q |

3-topshiriq. Javobi yoziladigan test:

- Tishlarni asrash uchun nimalar qilish kerak?
- Nima uchun tishlar 32 qo'riqchi deb ataladi?

4-topshiriq. Lingvistik topshiriq:

Matnda keltirilgan biriktiruv va zidlov bog'lovchilari ishtirok etgan gaplarni aniqlang.

Bundan tashqari yana 9-sinf darsligida keltirilgan "Yaxshilik unutilmaydi. Gap bo'laklari" mavzusida keltirilgan quyidagi matn asosida ham topshiriqlar bergan holda tilni adabiyot fani bilan bog'lash mumkin:

Yaxshilik yerda qolmas⁵

Ari suv ustida uchib yurib, birdan suvga tushib ketdi. Qanotlari ho'l bo'ldi. Arining uchishga kuchi yetmadi.

Shu payt arini kabutar ko'rib qoldi. Unga rahmi keldi. Kabutar cho'pni tishlab, suvga tashladi. Ari cho'pni kema qilib, halokatdan qutuldi.

Bir bola tuzoq qo'yib, kabutarni tutmoqchi bo'ldi. Ari buni ko'rib qoldi. U shu zahoti kelib, bolaning qulog'ini chaqdi. Bola og'riqqa chidolmay, tuzoqni tashlab, qulog'ini ushladi.

Kabutar uchib ketib, falokatdan qutuldi.

1-topshiriq: Javobi tanlanadigan test

Matnda qanday fazilat aks etgan?

- A. hayvonot olami haqida
- B. sergaklik haqida
- C. do'stlik haqida
- D. yaxshilik haqida

⁵ A.Rafiyev, G.Muxamedjanova. O'zbek tili. Ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 9-sinfi uchun darslik. "O'qituvchi", Toshkent-2019, 31-bet.

2-topshiriq: Bir necha javobli test Bola va kabutar obrazlariga tavsif bering.

| Bola | Kabutar |
|-------|---------|
| | |

3-topshiriq. Javobi yoziladigan test:

- Hayotda shunga o‘xshash voqealarni kuzatganmisiz?
- Yaxshilik haqida yana qanday asarlarni o‘qigansiz?

3-topshiriq. Lingvistik topshiriq:

Matnda keltirilgan gap bo‘laklarini aniqlang va tagiga chizing.

O‘zbek tili darslarida bunday keng qamrovli topshiriqlarni qo‘llash bir tomondan matematika, biologiya, adabiyot va odobnomadan o‘rgangan nazariy bilimlarini hayotiy ko‘nikmalar asosida idrok etish imkoniyatini beradi. O‘zbek tili ta’limida shu vaqtga qadar matn bilan ishlashga juda kam e’tibor qaratilgan. Aksincha, qoidalar-til nazariyasiga e’tibor juda yuqori edi. Shuning hisobidan o‘quvchilarda matn mazmuni bilan ishlash, matnda keltirilgan har bir so‘zning ma’nosi yuklatilgan vazifani anglash, tinglab tushunish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish mantiqiy topshiriqlar yechimida asosiy omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi. O‘quvchilarning savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot dasturi haqida qo‘llanma. -T.:2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7- fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF- 4947-son Farmoni.– O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6- son, 70-modda.
3. Пентин П.А., Ковалева Г.С “Состояние естественно-научного образования в российской школе по результатам международных исследований TIMSS и PISA”, –М.: 2018.
4. Xadicha Muhitdinova. O‘zbek tili. Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 8-sinfi uchun darslik. “O‘qituvchi”, Toshkent-2019, 73-bet.
5. A.Rafiyev, G.Muxamedjanova. O‘zbek tili. Ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan maktablarning 9-sinfi uchun darslik. “O‘qituvchi”, Toshkent-2019, 31-bet
6. Komilova, N. A. (2022, June). COMPARATIVE ANALYSIS OF LEXICAL VERBALIZERS OF THE CONCEPT “GENDER” IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 103-106).
7. Abdilkadimovna, K. N. (2022). THEORETICAL ANALYSIS OF GENDER RELATED WORDS IN ENGLISH LANGUAGE. YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS, 1(2), 179-182.
8. Shodiyeva, G. N. K., & Dustmatov, H. (2022). CLASSIFICATION OF WORDS IN UZBEK AND ENGLISH: IN THE EXAMPLE OF VERBS. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(4), 234-237.
9. qizi Shodiyeva, G. N., & Dusmatov, H. H. (2022, July). RINCPLES OF DIVISION OF WORD CATAGORIES IN UZBEK LANGUAGE. In *INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING* (Vol. 1, No. 11, pp. 38-43).
10. Tukhtaeva, K., & Razzakova, N. (2021). The role of cognitive linguistic approach in implementing idioms into english language teaching process. *SOUTH ASIAN JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT RESEARCH*, 11(6), 10-17.
11. Tukhtaeva, K., & Khasanova, G. (2021). Teaching idioms with a color component reflecting a person's internal world. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(6), 162-169.
12. Satvoldiyevna, U. D. (2021). Axiological Characteristics Of English, Uzbek And Russian Phraseological Units. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(06), 40-45.
13. Sotvoldiyevna, U. D. (2022). Political Euphemisms in English and Uzbek Languages (A Comparative Analysis). *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 9, 92-96.
14. Do‘smatov, D., & qizi Shodiyeva, G. N. (2022, May). O ‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SO ‘ZLARNI TURKUMLARGA AJRATISH TAMOYILLARI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES ON LEARNING AND TEACHING* (Vol. 1, No. 8, pp. 770-774).

15. Usmonova, D. (2022). PRINCIPLES OF DIVISION OF WORD CATEGORIES IN UZBEK LANGUAGE. *YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS*, 1(2), 60-65.
16. Shodieva, G. N. K. (2022). CLASSIFICATION OF WORDS IN UZBEK AND ENGLISH: IN THE EXAMPLE OF VERBS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 4-2), 1128-1131.